

IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLARNING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI

Karimov Islom Umidullo o'g'li

IIV Surxondaryo akademik litseyi

Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi

Kalit so'zlar:

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Barcha mulk shakllarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning muhim omillaridan biri ularga nisbatan qilingan tajovuz uchun jinoyat qonunchiligidagi jinoiy javobgarlik belgilanishidir.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar – bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan, milliy iqtisod, uning tarmoqlari yoki sohalariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish deganda, huquqqa xilof ravishda o'rnini qoplamasdan, g'arazgo'ylik niyatida mulkdorga zarar yetkazib, o'zganing mulkini aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar foydasiga egallab olish yoki o'tkazish tushuniladi.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining turdosh obyekti mulkni o'zgaga tegishlilik huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ham mazkur turdag'i jinoyatlarning predmetini o'zganing mulki tashkil qiladi.

O‘zganing mulki deganda – boshqaga tegishli bo‘lgan ashyolar, pullar, mulkka egalik huquqini beruvchi – qo‘lga kiritilishi, mulkni qo‘lga kiritish bilan teng bo‘lgan hujjatlar tushuniladi.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarida mulk davlat, xususiy, aralash, ommaviy va boshqa mulk bo‘lishidan qat’i nazar u o‘zganing mulki deb baholanadi.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining quyidagi belgilari mavjud:

- 1) g‘arazli niyatning (g‘arazgo‘ylik) mavjudligi;
- 2) o‘zganing mulkini huquqqa xilof ravishda egallash;
- 3) o‘rnini qoplamaslik;
- 4) mulk o‘zganing tasarrufida bo‘lishi va mulk o‘zganing tasarrufidan olinishi;
- 5) mulkdorga moddiy zarar yetkazilishi.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarida jinoyatning tugallanish vaqtি mulkni egallash usuliga ko‘ra aniqlanadi. Shu bois barcha holatlarda (bosqinchilik va tovlamachilik bundan mustasno) tamomlangan qilmish uchun mulknинг mulkdor qaramog‘idan olinishi va aybdor undan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lishi zarurdir.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari subyektiv tomondan aybning qasd shaklida sodir etiladi.

Mazkur jinoyatlarning subyekti 14 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Ayri jinoyatlar uchun (JK 167, 168-m.) 16 yoshdan javobgarlik belgilangan.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar – bu O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan, talon-toroj belgilarining yo‘qligi holatida mulkka tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlarining turdosh obyekti o‘zgalar mulkining daxlsizligi va xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy

munosabatlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ham mazkur turdag'i jinoyatlarning predmetini o'zganing mulki tashkil qiladi.

Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 170, 171, 173-m.) yoki harakatsizlikda (JK 172-m.) ifodalanadi.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'limgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko'ra formal (JK 171-m.) yoki moddiy (170, 172, 173-m.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko'rsatilgan.

Mazkur jinoyatlarning subyektiv tomoni qasd (JK 170–171-m., 173-m.) yoki ehtiyoitsizlik (JK 172-m.)da ifodalanishi mumkin.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'limgan jinoyatlarning subyektlari 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 173-m. 2 va 3-q.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Ba'zi jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, mulkni qo'riqlash yuzasidan majburiyat yuklatilgan shaxs (JK 172-m.).

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar – bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan pul-kredit va moliya tizimini hamda sanoat va xalqaro savdoning normal faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti pul-kredit va moliya tizimini hamda sanoat va xalqaro savdoning normal faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, valuta qimmatliklari (JK 177-m.), chet el valutasi (JK 178-m.) va boshqalar.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 175–177, 179–182, 184¹–185²-m.) yoki harakatsizlikda (JK 178, 184-m.) ifodalanadi. Ayrim jinoyatlar ham harakat, ham harakatsizlikda (JK 183-m.) sodir etilishi mumkin.

Mazkur jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko‘ra formal (JK 176–179, 182, 183, 185¹, 185²-м.) yoki moddiy (JK 175, 180–181¹, 184–185-м.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko‘rsatilgan.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi.

Ushbu turdagи jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat sodir etishning motivi va maqsadi zaruriy belgi sifatida nazarda tutilgan. Masalan, qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish maqsadi (JK 176-м.).

Mazkur jinoyatlarning subyektlari 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Ayrim jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda valuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi xodimlar (JK 178-м.).

Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar – bu mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish (almashtirish), foydalanish va iste’mol qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va sof raqobat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarning turdosh obyektini mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish, foydalanish va iste’mol qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek sof raqobat sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Mazkur jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, iste’molchilarining hayoti yoki sog‘lig‘i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlar (JK 186-м.), etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlari (JK 186¹-м.) va boshqalar.

Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 186–189, 191–192-м.) yoki harakatsizlik (JK 190-м.)da ifodalanadi.

Mazkur jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko‘ra formal (JK 186, 186², 186³, 188¹, 191, 192-м.) yoki moddiy (JK 186¹, 188, 189, 190-м.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko‘rsatilgan.

Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi.

Ushbu turdagи jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat sodir etishning motivi va maqsadi zaruriy belgi sifatida nazarda tutilgan. Masalan, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadi (JK 186-м.).

Mazkur jinoyatlarning subyektlari 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqilik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar bu Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqilik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Mazkur turdagи jinoyatlarning turdosh obyektini tadbirkorlik faoliyati erkinligini, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, pul mablag‘lari (JK 192⁷-м.), moddiy qimmatliklar (JK 192⁹-м.) va boshqalar.

Ushbu jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 192¹–192⁴, 192⁸–192¹¹-м.) yoki harakatsizlikda (JK 192⁷-м.) ifodalanadi. Ayrim turdagи jinoyatlar ham harakat ham harakatsizlikda (JK 192⁵–192⁶-м.) sodir etilishi mumkin.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko‘ra formal (JK 192¹–192¹⁰-м.) yoki moddiy (JK 192¹¹-м.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko‘rsatilgan.

Mazkur jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi. Mazkur jinoyatlarning subyektlari 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Ayrim jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va

davlat tashkilotining mansabdar shaxsi yoki xizmatchisi (JK 192⁴-m.), bankning mansabdar shaxsi yoki xizmatchisi (JK 192⁷-m.).

Bosqinchilik o‘zganing mol-mulkiga qarshi qaratilgan eng xavfli jinoyatlardan biri bo‘lib, uni sodir etganlik uchun javobgarlik JK 164-moddasida nazarda tutilgan.

Bosqinchilik ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi, avvalo, shu bilan bog‘liqki, bu jinoyat natijasida o‘zganing mol-mulki egallab olinayotganda jabrlanuvchilarining hayoti yoki sog‘lig‘iga ham ziyon yetkaziladi yoxud bunday ziyon yetkazilishi uchun real xavf vujudga keladi.

Bosqinchilikning bevosita asosiy obyekti sifatida o‘zganing mol- mulkini muhofaza qilishni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar, bevosita qo‘srimcha obyekti sifatida esa, fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Obyektiv tomondan bosqinchilik o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko‘rsatgan shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtib hujum qilishda ifodalanadi.

Bosqinchilik sodir etishdagi hujum qonunga xilof ravishda ochiqdan- ochiq yoki yashirin ravishda to‘satdan jabrlanuvchiga, ya’ni mulkdorga, mol-mulkka qonuniy ravishda egalik qiluvchi mulk egasiga, shuningdek, talon-toroj qilishga qarshilik ko‘rsatayotgan boshqa uchinchi shaxslarga zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ta’sir ko‘rsatishda ifodalanadi.

Aksariyat hollarda, bosqinchilik vaqtida shaxsga ochiqdan-ochiq hujum qilinadi, ba’zan esa jabrlanuvchiga sezdirmasdan yashirincha (masalan, orqadan o‘q uzib, panadan pichoq urib) sodir etilishi ham mumkin. Hujum jabrlanuvchiga nisbatan zaharovchi yoki falaj qilishga qaratilgan vositalar va moddalar orqali ochiqdan-ochiq yoki yashirin ravishda sodir etilishi mumkin.

Bosqinchilikda ishlatiladigan zo‘rlik jismoniy yoki ruhiy bo‘lishi mumkin. Odatda, bosqinchilikda zo‘rlik ishlatish hujum bilan ayni bir vaqtida sodir bo‘ladi, ammo bevosita hujumdan keyin kuch ishlatilishi hollari ham uchraydi. Hujum boshqa

bir shaxsga qaratilib, mol-mulkni egallahsga to'sqinlik qilmoqchi bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatilgan hollar ham uchraydi.

Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroriga ko'ra, «uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo'g'ish, boshini suv ostida ushlab turish va h.k.) tushuniladi. (Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish — M.X. Rustambayev.)

Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'lig'ining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh chigaliga urish va h.k.) tushuniladi».

O'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko'rsatgan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtib sodir etilgan hujum JK 164-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qonun zo'rlik ishlatishni bosqinchilikning belgisi sifatida uni umumiyl holda «hayot yoki sog'liq uchun xavfli» deb belgilaydi. Biroq jabrlanuvchining unga zo'rlik ishlatishi natijasida o'lim holati kelib chiqsa, bosqinchilik jinoyatining tarkibiga kirmaydi, shuning uchun ham bu belgi faqatgina qasddan badanga shikast yetkazishnigina qamrab oladi. Bosqinchilik jarayonida badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik JK 164-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan. JK 164-moddasining 1-qismi jabrlanuvchi sog'lig'iga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-moddasi) yoki yengil shikast yetkazish (JK 109-moddasi 2-qismi) oqibatlarini ham qamrab oladi va JK 105- yoki 109-moddalarini bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

Aldash yo'li bilan tanasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi, zaharli, uxlatadigan yoki boshqa karaxt qiladigan moddalar jabrlanuvchiga berilganida, qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Albatta, agar bunday

moddalarning berilishi jabrlanuvchining hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirgan bo‘lsa, aybdorning harakatlarini JK 164-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish zarur.

Jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, uxlata digan (masalan, kuchli spirtli ichimliklar bilan birga klofelinni qo‘sib berish) va boshqa karaxt qiladigan vositalarni berish orqali uni hushsiz ahvolga keltirib mulkini talon-toroj qilish ham bosqinchilik deb hisoblanishi lozim.

Agar qonunga xilof ravishda o‘zganing mol-mulkini egallash jarayonida jabrlanuvchi qonunga xilof ravishda zo‘rlik harakatlari natijasida ozodlikdan mahrum qilinsa, bu harakatlarni bosqinchilik yoki talonchilik sifatida baholashda amalga oshirilgan zo‘rlik harakatlarining shaxs hayoti va sog‘lig‘iga yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari, shuningdek, bu kabi harakatlar natijasida yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning xavflilik darajasi va xususiyatlari inobatga olinishi lozim (misol uchun oyoq-qo‘li bog‘langan va yordamga chaqirish imkoniyatiga ega bo‘lman shaxsni sovuq havoda yoki joyda qoldirish).

Aybdor qachonki shaxs hayoti yoki sog‘lig‘iga zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilgan taqdirdagina, hujumni bosqinchilik deb kvalifikatsiya qilish mumkin.

Bunday zo‘rlik ishlatish tahdidi jabrlanuvchiga ruhiy zo‘rlik orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Zo‘rlikning xususiyatini og‘zaki, qurojni ko‘rsatish, imo-ishora (masalan, «o‘ldiraman», «mayib qilaman», «ko‘zingni o‘yib olaman» deyish) qilish, jabrlanuvchining hayotiga yoki sog‘lig‘iga og‘ir tan jarohati yetkazishi mumkin bo‘lgan quroj, to‘pponchani, pichoqni yoxud shu maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa predmetlarni jabrlanuvchiga ko‘rsatish, shuningdek, hujum harakatlarini amalga oshirish (og‘ir predmet bilan boshiga urishga harakat qilish, o‘qotar quroj yoki pichoqni o‘qtalish va h.k.) orqali ham ifodalash mumkin. Zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilishni amalga oshirish usuli: og‘zaki, qo‘l harakatlari va boshqalar JKning 164-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar zamонавиј тизимда мухим о‘рин тутиди, чунки улар бевосита мамлакатнинг иқтисодиј хавфсизлиги, молијавиј баргарорлиги ва тадбиркорлик мухити барпо етилишига таҳдид солади.

Ushbu jinoyatlar, odatda, moliyaviy resurslarni noqonuniy egallash, davlat byudjetiga zarar yetkazish, bozor mexanizmlarini buzish, fuqarolarning iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini poymol etish orqali ifodalanadi.

Iqtisodiy jinoyatlar o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab, yashirin shaklda sodir etilishi bilan ajralib turadi va ko‘pincha korrupsiya, poraxo‘rlik, soliqlardan bo‘yin tovlash, noqonuniy tadbirkorlik, pullarni “yuvish”, raqamli iqtisodiyotdagi firibgarlik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu jinoyatlarning yirikligi va jamiyatga yetkazadigan salbiy oqibatlari ularni jinoyat huquqining alohida o‘rganiladigan sohasi sifatida ajratib ko‘rsatishga asos bo‘ladi.

Mazkur mavzuning o‘rganilishi akademik litsey o’quvchilarga iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning huquqiy mohiyatini anglash, ularning turlarini farqlash, jinoyat tarkibini aniqlash, amaliy misollar asosida jinoyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavzuning dolzarbliji talabalarda huquqiy ong va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023 – 184b
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – asosiy normativ hujjat.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi – jinoyat ishlari yuritilishi tartibini belgilaydi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – jinoyat huquqining asosiy prinsiplari shu yerda belgilangan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenum qarorlari
7. M. Rustambayev. "Jinoyat huquqi (Maxsus qism)" – jinoyat turlarining tahlili.